

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI EVFEMIZM TEMATIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amriddin Shoimov Shodmonovich

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

amriddinshoimov@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda evfemizmlar ilmiy jihatdan shunchalik chuqur o'rganilganki, hattoki mavzularning o'zi ham turli sohalar bo'yicha atroflicha o'rganilmoqda. Maqolada nemis tili va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning qaysi mavzularda qo'llanishi tadqiqoti o'rganilgan bo'lib, ular tematik tasnif etilgan. Nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning qo'llanilish mavzulari bir – biriga yaqin bo'lib, ular asosan diniy, ijtimoiy-siyosiy hamda odob-axloq masalalarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar : *evfemizm, qadimgi va zamonaviy evfemizmlar, ijtimoiy-siyosiy mavzular, mavzular tasnifi.*

Kirish

Qadimdan evfemizm masalasiga murojaat qilgan olimlar ularning mavzuga oid tasnifini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadilar. Zero bunday tahlil evfemizmlar tadrijiy evalutsiyasini yaqqol namoyon qiladi. Ayrim tadqiqotchilar faqat bir mavzuga oid evfemizmlarni bir yoki bir necha til doirasida o'rgangan bo'lsalar, boshqalari ularni bir til doirasidagi barcha qo'llaniladigan mavzularda tadqiq etganlar. Ayrim olimlar esa ikki til doirasidagi evfemizmlar tematikasini chog'ishtirib, tegishli xulosalarga kelishga, lug'atlar tuzishga muvofiq bo'lganlar.

Evfemizmlar tematikasi masalasida gap borar ekan g'arb tillaridagi ushbu unurni tadqiq qilgan olimlar turlicha sxemalar taklif qilganlar. Tematikaga bo'lgan munosabat borgan sari takomillashib, evfemizmlar qo'llanadigan mavzular soni borgan sari ko'payib borishini kuzatish mumkin [Berdova, 1981: 29-32].

O'zbek tilida taklif qilingan ilk evfemizm tematikasi sifatida quyidagi 5 ta mavzuni sanab o'tishimiz mumkin: 1) tabu bilan bog'liq evfemizmlar, 2) bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar, 3) ma'nosi qo'pol, aytilish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar, 4) nutqiy bezaklilik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar, 5) stilistik evfemizmlar [Ismatullayev, 1963: 59]. Ushbu tasnif umumiylik jihatidan evfemizmlarni to'liq qamrab olishi bilan bir qatorda, jamiyatimizdagi barcha sohaga dahildor deyish mumkin. Ushbu til unsurining tadqiqoti borgan sari rivojlanib borar ekan, tematikaning yanada kengayishi, konkretlashishi va ko'payishi sodir bo'lib bormoqda. Bunga sabab evfemizmlar nafaqat til unsurlaridan biri sifatida umumiy o'rganilmoqda, balki har bir sohaning o'zida va ikki yoki undan ortiq tillar doirasida qiyoslanib, bir sath yoki mavzu doirasida, hattoki bir muallif ijodi doirasida o'rganilmoqda.



Hozirgi kunga kelib esa evfemizm tematikasi batafsil tadqiq etilgan bo‘lib, jamiyatning ko‘plab sohalarini va muloqotdagi asosiy mavzularni o‘z ichiga oladi. Nemis tilidagi eng munosib tarzda taklif qilingan evfemizm mavzularidan biri sifatida ushbu tasnifni keltirish mumkin:

1. g‘ayritabiiy kuchlar	übernatürliche Kräfte
2. o‘lim	Sterben
3. kasalliklar	Krankheiten
4. Jismoniy va aqliy zaifliklar	Körperliche und geistige Behinderungen
5. inson tanasi va uning alohida qismlari	menschlicher Körper und seine einzelnen Teile
6. fiziologiya	Physiologie
7. xomiladorlik	Schwangerschaft
8. jinsiy aloqalar	Sexuelle Beziehungen
9. Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste‘mol qilish	Alkohol- und Drogenkonsum
10. Huquqbuzarliklar va jinoyatlar	Ordnungswidrigkeiten und Verbrechen
11. Ijtimoiy-siyosiy soha [Prudivus, 2006: 109]	Gesellschaftspolitischer Bereich

Yuqorida berilgan 11 ta evfemizm tematikasi nazarimizda jamiyatdagi eng muhim sohalarni o‘z ichiga qamrab ola olgan [Bohlen: 1994: 147]. Evfemizm mavzularini aynan shunday guruhlarga bo‘lib o‘rganish qolgan sohalarda evfemizmlar qo‘llanmaydi degani emas, balki yuqoridagi mavzularda evfemizmlar soni nisbatan ko‘proq, ommaviyroq degan xulosani beradi.

Masalan, chorvadorlar nutqi evfemikasini o‘rganilishida garchi mavzu chorvadorlikka qaratilgan bo‘lsada, ularning ayrimlari yuqorida berilgan tematikaga mos keladi [Omontudiev, 2009: 84-153]. Chorvadorlik mavzusiga mos bo‘lgan “Chorva mahsuloti bilan bog‘liq evfemizk vositalar” [Omontudiev, 2009: 108] kabi evfemizm turlari maxsus bir mavzu doirasidagi unsurlar tadqiqoti sanalsa, “Chorva **o‘limi** bilan bog‘liq evfemiztik vositalar” [Omontudiev, 2009: 122] yoki “Chorva **kasalliklari** bilan bog‘liq evfemizk vositalar” [Omontudiev, 2009: 126] yuqorida keltirilgan “o‘lim”, “kasalliklar” tematikasiga daxildor hisoblanadi.

Evfemizm tematikasi bir muallifning badiiy ijodi doirasida uchrashi o‘rganilgan tadqiqot ishlarida ham mavzularning yuqoridagilarga aksar hollarda mosligini ko‘rishimiz mumkin. Abdulla Qodiriyning ijodini tadqiq etilishi natijalarini o‘z ichiga olgan dissertatsiyada 8 ta mavzuga bo‘lib o‘rganilgan evfemizm va disfemizmlar muavzuan yuqoridagi 11 mavzuga mazmunan juda yaqin deyish mumkin. Faqatgina “shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar [Qodirova, 2012: 14]” mavzusi o‘ziga xosdir. Chunki bunday mavzuiy bo‘linish har doim ham uchrayvermaydi. Ammo shaxsni ta‘riflashda qo‘llanilgan



“*suyuqoyoq*” evfemizmidan shuni tushunish mumkinki, bu mavzu yuqoridagi 8- jinsiy aloqalar mavzusiga mazmunan yaqindir.

Medisina tilida ham ko‘plab evfemizmlarni uchratishimiz hech kimga sir emas. Ushbu sohani tadqiq etgan olimlar ham medisinadagi evfemizmlarni mavzulashtirganlar. “Davosiz yoki davosi uzoq kasallik nomlari bilan bog‘liq evfemizmlar”, “ayollarning uzurli holatlari bilan bog‘liq evfemizmlar” yoki “biomoddan anglatuvchi evfemizmlar” kabi mavzular aynan medicina sohasiga tegishli evfemizmlar bo‘lsa, tadqiqotlarda uchrovchi boshqa mavzular biz yuqorida keltirgan 11 qisimdan iborat mavzular bilan mazmunan yaqindir [G‘aybullaeva, 2019: 14].

Hozirgi kunda evfemizm tematikasi ikki tilda qiyoslab o‘rganilgan holatlarni ham ko‘plab uchratish mumkin. Bunday tipologik dissertatsiyalarda keltirilgan evfemizm tematikasi doirasi yanada kengaygan bo‘lib, mavzular soni ham oshib bormoqda [Sattorova, 2021: 14-17].

Biz keltirgan yuqoridagi mavzular orasida “Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi evfemizatsiya”, “Yoshlarning balog‘atga yetganlik, bokiraligi bilan bog‘liq evfemistik vositalar” [Sattorova, 2021: 14], “noqonuniy va yetim tug‘ilgan bolalarga nisbatan uyatchilik ma‘nosini beruvchi evfemizmlar” [Sattorova, 2021: 15], “moliyaviy ahvolning tang ekanligini ifodalovchi evfemik vositalar”, “keksalarga xushmuomilalik bilan bog‘liq evfemizmlar” [Sattorova, 2021: 16] kabi mavzular uchramaydi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, zamonaviy global dunyoda insoniyat barcha javhalarda xushmuomila, muloyim hamda hech bo‘lmaganda neytral muomala qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda.

Evfemizmlarning yuzaga kelishida madaniyatning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ma‘lum. Bu u yoki bu jamiyatning qarashlari, turmush tarzi va qadriyatlariga bog‘liq. Jamiyatlarning bir – biri bilan muloqot qilishida hamda tashqi dunyo bilan aloqa qilishida yuzaga keladigan evfemizmlarni tadqiq etgan olimlar evfemizm mavzularini 8 sferada tadqiq etish maqul deb hisoblaydilar [Glios, 2007: 11].

Bunday mavzuiy bo‘linish umumiylikni taqozo etib, quyidagi sferalarni o‘z ichiga oladi: 1) din, 2) siyosat va iqtisod, 3) jinoyat, jamoat normalari, chegaralarining buzilishi, 4) yosh, ko‘rinish, 5) aqliy va fizik yetishmovchilik, 6) fiziologiya, jinsiy aloqa, 7) o‘lim va kasalliklar, 8) past obro‘ga ega kasblarni ahamiyatini ko‘tarish maqsadida qayta nomlash. Ushbu bo‘linish va biz tomonimizdan yuqorida keltirilgan 11 guruhning farqli jihatlari shundaki, 8 sferada taqdim etilgan guruhlarda bir – biriga yaqin bo‘lgan mavzular bir guruhga kiritilgan. Ikkala tasnifning umumiy jihati esa, jamiyatning bir sohasiga chuqur etibor qaratilmasdan, balki barcha sohalarni qamrab olishga harakat qilingan.

Hozirgi kunda evfemizm unsurini tekshirish obyekti sifatida tanlagan olimlar soni oshib bormoqda. Hattoki faqatgina bir mavzuga oid bo‘lgan evfemizmlarni tadqiq etish va ularni ikki til doirasida qiyoslashga bag‘ishlangan ishlar ham ko‘p uchraydi. Bunday ishlardan biri nemis va turk tillaridagi “Tod-o‘lim” va “Sterben-o‘lmoq” mavzusiga bag‘ishlangan tadqiqot ishidir. Aynan shu evfemizm tematikaga murojat qilishga esa olimlarni aynan shu mavzuda evfemizmlar ko‘psonli ekanligidandir. Aynan bir mavzuga dahildor evfemizmlarni tadqiq etilishida eng ko‘p murojaat qilinadigan evfemizmlar qatoriga siyosiy evfemizmlarni ham kiritish mumkin.

Siyosiy maqsadga xizmat qiluvchi kasbga oid evfemizmlar ham borgan sari ko‘payib bormoqda. Bunga asosiy sabab ayrim past darajali deb sanalgan kasblar statusini ko‘tarish sanaladi. Shu sababli bir yoki bir necha tildagi kasbga oid evfemizmlarni o‘rganishda ham olimlar jonbozlik ko‘rsatmoqdalar.

Evfemizm tematikasi XXI asrga kelib borgan sari tizimlashib bormoqda. Bir mavzu doirasidagi evfemizmlarning yanada kichik mavzularga bo‘lib o‘rganish ham jadal suratda oshmoqda [Rustamova,



2018: 13]. Quyida muallif tomonidan taklif etilgan evfemizm tematikasiga nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlardan ayrim milollarni keltirib o'tamiz.

1. Fiziologik jarayon va holatlar. Bu jarayon va holatlarni ifodalovchi evfemizmlar ikki guruhga bo'linadi:

1.1. uyat sanalgan fiziologik jarayon va hodisalarni ifodalovchi evfemizmlar: Nemis tilida - der Akt-intim muloqot, Anahusten haben-yel chiqarmoq, die Anschaffe-fohishalik, in guter Hoffnung sein-xomilador bo'lmoq;

O'zbek tilida - qo'shilmoq, o'ynamoq; homilador, og'ir oyoqli;

1.2. jirkanch sanalgan fiziologik jarayon va hodisalarni ifodalovchi evfemizmlar:

Nemis tilida – Pipi machen-bavl qilmoq, Aa machen-yozilmoq, der Allerwertester-ket, erledigen-xojat chiqarmoq, die Tage-minstratsiya kunlari;

O'zbek tilida - bavl qilmoq; axlat, najas, kattasi; kakasi; peshob, kichigi;

1.3. ayb sanalgan fiziologik jarayon va hodisalarni ifodalovchi evfemizmlar: burni; sassig'i.

2. Ayrim tana a'zolari nomlari. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

2.1. jinsiy a'zo nomlari:

nemis tilida - das Gepäck-olat, die Natur-jinsiy a'zo,

o'zbek tilida - asbob, uyat joy, apparat, dastmoya, haligi, issiq joy;

2.2. nojinsiy a'zo nomlari:

nemis tilida - das Popochen-ket, vier Buchstaben-uch harf, Äpfel-olmalar, der Hügel-tog'cha

o'zbek tilida - avrat, siyna, ko'krak, mamma, orqa.

3. Jinslar orasidagi munosabatlar. Bu ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi va shunga xos va mos evfemik vositalar bilan ta'minlanadi:

3.1. ixtiyoriy jinsiy aloqani ifodalovchi evfemik vositalar:

nemis tilida – beilegen-yotmoq, das Bett mit jemandem teilen-to'shakni bo'lishmoq, die Bettgeschichte-yotoq hikoyasi, gehen-yurmoq, doppelt heimkommen-ikki qat bo'lib uyga qaytmoq

o'zbek tilida - o'ynashmoq, intim aloqada bo'lmoq, yaqin aloqada bo'lmoq, don olishmoq, iskashmoq, hidlashmoq; jismoniy yaqinlik, yurmoq, bo'lmoq;

3.2. majburiy jinsiy aloqani ifodalovchi evfemik vositalar

nemis tilida - Gewalt antun-zo'ravonlik qilmoq, missbrauchen-zo'rarmoq,

o'zbek tilida - boshini aylantirmoq, zo'rarmoq, nomusiga tegmoq; itlik qilmoq, nafsini qondirmoq.

O'lim va kasallik bilan bog'liq evfemizmlar. O'lim bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlarning turlarga bo'lib o'rganish keng qamrovli bo'lganligi hamda milliy – madaniy bo'yoqdorlikka chambarchas bog'liqligini inobatga olgan holda, ushbu mavzuga oid evfemizmlarini keyingi bobimizda yoritib berishni to'g'ri deb hisoblaymiz.

Biz tomonimizdan o'rganilib chiqilgan tadqiqot ishlarida evfemizmlarning yana bir muhim mavzusi bu, evfemizmlarning reklamalarda qo'llanilishidir. Reklamalarda ayniqsa evfemizmlarning ongini boshqarib, manipulatsiya qilishda ularning xushohanglik vazifasidan foydalaniladi. Ayrim olimlarning



fikricha, so‘nggi yillarda reklama sohasida evfemizmlardan foydalanish sezilarli darajada kamaydi, chunki reklama beruvchilar borgan sari aniq faktlar bilan ajralib turishni xohlashadi. Biroq, biz kundalik tilda foydalanishda evfemizmlarga muntazam ravishda duch kelamiz. Reklamarda evfemizmlar kam qo‘llansada, ularni ikki tilda ham ko‘rish mumkin.

Reklama sohasida qo‘llaniladigan nemis va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin. Preiswert-narxiga yarasha, g‘unstig-qulay narxda, freundliche Preise-yoqimli narxlar, bezahlbar-to‘lashga qulay, Preisanpassung-narxlarning moslashtirilishi, kostenintensiv-keskin narxlar, luxuriöse Ausstattung-lyuks shart-sharoitlar.

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, evfemizmlar hozirgi kunda nafaqat turli til sathlarida shakillanishi, qo‘llanilishi va shakliga ko‘ra o‘rganilmoqda, balki ularning leksiko-semant hamda morfologik yasalishi bilan bir qatorda ularning tematikasining ahamiyati ham ko‘p sonli tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Бердова Н.М. Эвфемизмы в современном немецком языке. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологический наук. -Киев, 1981. 230 б.
2. Bohlen A. Die sanfte Offensive: Untersuchungen zur Verwendung politischer Euphemismen in britischen und amerikanischen Printmedien bei der Berichterstattung über den Golfkrieg im Spannungsfeld zwischen Verwendung und Missbrauch der Sprache. Univ., Diss., Frankfurt am Main. Lang, 1994, 278.
3. Глиос Е.С. Лингвокультурная специфика формирования и функционирования эвфемизмов в современном английском языке (на материале англоязычных Интернет-сайтов). Автореферат. – Белгород, 2007, 8,9 б.
4. G'aybullaeva N.I. O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar. (tibbiy davriy nashr materiallari asosida) filologiya fanlari ishlab chiqish falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Buxoro, 2019. 51 b.
5. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va defemizmdan foydalanish mexanizmi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajalarini olish uchun hujjatlar dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent, 2012 yil, 10 b.
6. Прудивус. Эвфемизмы в современном немецком языке. дисс. на соиск. уч. степ, к.ф.н. - Санкт-Петербург, 2006.
7. Rustamova D. A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragsmatik aspektlari. filologiya fanlari faoliyatini falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari avtoreferati. –Farg‘ona: 2018, 50 b.
8. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evemikasi (chorvadorlar nutqi misolida). – Toshkent, 2009, 61-63 b.
9. Саторова Й.А. Вопросы типологии и лексикографическое исследование эвфемизмов. Самарканд. – 2021.
10. Anorqulov, S. I. (2020). TOPONYMS AS CULTURALLY SIGNIFICANT LANGUAGE UNITS. *Theoretical & Applied Science*, (9), 442-447.
11. Аноркулов, С. (2019). Немецкие и узбекские топонимы как лингвокультуреми. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (4 (73)), 83-86.
12. АНОРҚУЛОВ, С. И. (2019). FEATURES OF THE STRUCTURE OF THE TOPONYMS OF GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 171-178.

